

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDA FE‘LLARNING ZAMON SHAKLLARIDA TUSLANISHI**

Radjapova Intizor

Magistranti, Urganch Davlat universiteti magistratura  
bo‘limi lingvistika (Ingliz tili) yo‘nalishi**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ingliz tilidagi o‘tgan zamonning tuzilishi va uning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari tahlil qilinadi.

**ABSTRACT**

The structure of past tenses in English language and its equivalents of Uzbek language are analyzed in this article.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются формы прошедшего времени в структуре Английского языка и определяется эквивалент этих времен в Узбекском языке.

**Kalit so‘zlar:** Past noaniq davomli, Past Perfect, morfema, offix, sintetik fe‘llar, analitik usul.

**Key words:** Past indefinite continuous, Past Perfect, morpheme, offix, sintetic verbs, analytics method.

**Ключевые слова:** Past Indefinite Continuous, Past Perfect, морфема, оффикс, синтетические глаголы, метод аналитики.

Mazkur maqolada ingliz tili strukturasiidagi o‘tgan zamon formalari tahlil etiladi va bu zamonlarning o‘zbek tilidagi ekvivalenti aniqlanadi.

1. Past Indefinite. 2. Past Continuous. 3. Past Perfect. 4. Past Perfect Continuous. Past Indefinite sintetik usul bilan ifodalanadi, chunki o‘tgan zamon grammatik ma‘nosi fe‘lning ichida ifodalanadi. Masalan, to‘g‘ri fe‘llardan Past Indefinite yasalgan- da, -d//ed aglyutinativ-sintetik affiksial morfemasi fe‘l o‘zagiga qo‘shiladi. Bu affiksial morfemalar qo‘shilganda o‘zak morfema o‘zgarmaydi. O‘zak va affiksial morfemalar bir-biridan ajratilganda, o‘zak morfema so‘z sifatida ish- latilish qobiliyatiga ega, chunki u o‘zining mustaqilligini yo‘qotmaydi. M.: (work) worked fe‘lidan affiksial morfema –ed olib tashlansa, work qoladi. Bilamizki, bu fe‘l o‘zak va negiz funksiyasini bajara oladi. Shu bilan birga, tilda to‘liq so‘z bo‘lib mavjud bo‘la oladi. Noto‘g‘ri fe‘llardan Past In- definite yasalganda, biz qadimiy ingliz tilidan qolib ketgan tayyor formalardan foydalanamiz. M.: write fliktiv-sintetik fe‘lining Past Indefinite formasi wrote, ko‘rinib turibdiki, Past Indefinite yasalgana write fe‘lidagi [ai] fonemasi [ou] fonemasiga aylangan. Past Indefinita — ish-harakatning o‘tgan zamonda tugallanganligini yoki tugallanayotgan- ligini ko‘rsatish maqsadida xizmat qiladi. Bu zamon o‘tgan zamonda bo‘lib o‘tgan voqeani aytib berishda, hamda tu- gallangan voqea-hodisalarni hikoya qilishda qo‘llaniladi. Past Continuous ni yasaganda to be fe‘lining o‘tgan zamondagi shakli was/were va ma‘no anglatuvchi fe‘ln- ing o‘zagiga –ing affiksial morfemasi qo‘shiladi hamda bu ikkala fe‘l

(ma'no anglatuvchi va ko'makchi fe'llar) o'zaro birikadi. O'zaro birikishni analitik usulda ifodalanish deb tushunsak, to be fe'lining was/were formalariga aylanish- ini supletiv grammatik vosita deb tushunib uning o'tgan zamon ma'nosini sintetik yo'l bilan ifolanganligini qayd qilamiz. Ko'rinib bu zamon analitik yo'l bilan ifodalangan bo'lsa ham har bir komponent o'z navbatida o'tgan zamon- ni ifodalash uchun flektiv formalardan foydalangan.

Continuous — tugallanish arafasida bo'lgan ish-harakatni, tugallanmagan davom etayotgan ish-harakatni ifoda etadi. Past Perfect zamonini yasashda ham sintetik analitik usullardan foydalanamiz. Masalan, had written, bunda Past Perfect formasi yordamchi va ma'no anglatuvchi fe'llarining o'zaro birikishi (ya'ni analitik usul bilan) nati- jasida yasalgan. Ammo bu ikki component o'z navbatida o'tgan zamon ma'nosini fliktiv forma orqali ya'ni sintetik usul bilan ifodalanadi. Past Perfect o'tgan ish-harakat- ning o'tgan zamonda aniq bir vaqtgacha tugallanganini if- odalashda ishlatiladi. Past Perfect o'tgan zamondagi biror vaqtdan oldin tamom bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Past Perfect Continuous zamon formasi ham yuqor- idagi zamon formalaridek analitik-sintetik usul yordamida yasalgan, ya'ni had been writing formasida ikki yordamchi fe'l had been ma'no anglatuvchi fe'l had been ma'no anglatuvchi writing bilan o'zaro birikkan, ya'ni Past Con- tinuous Tense analitik-sintetik usulda ifodalanadi deymiz, shu bilan birga uchala formaning har biri fliktiv forma hisoblanadi. Past Perfect Continuous Past Indefinite da qo'llangan boshqa bir ish-harakatdan oldin boshlanib o'sha paytda ham davom etadigan ish-harakatni ifodalaydi. O'zbek tilida o'tgan zamon fe'l formalari grammatikaning katta bir bo'limini tashkil qiladi. Shu bilan birga bu formalarning har biri kontekstda boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishganda o'zining asosiy maa'no- sidan tashqari yana juda ko'p noaniq tushunchalarni, qo'shimcha ma'nolarni anglatadi. Umuman fe'l formalari, jumladan o'tgan zamon fe'llari, gapda kesim vazifasida kelganda o'zining asosiy ma'no- laridan tashqari turli qo'shimcha ottenkalar anglatishi va bu ottenkalarining stil jihatidan qanday xarakterda bo'li-shi shu fe'l formalarining semantikasiga ham bog'liq. O'zbek tilidagi o'tgan zamon fe'llari ko'pincha quyida- gi guruhlarga ajratiladi: 1. Aniq yokiyaqin o'tgan zamon (bor-di) 2. O'tgan zamon hikoya fe'li (bor-ib-di) 3. O'tgan zamon davom fe'li (bor-ar-di) 4. Uzoq o'tgan zamon fe'li (bor-gan) 5. O'tgan zamon istak fe'li (bor-moq-chi) Ingliz va o'zbek tillaridagi o'tgan zamon formalarini qi- yosiy tahlil qilish maqsadida Paulo Kaelyoning "Portobel- lo jodugari" ("The Witch of Portobello") asarining har ikki tildagi tarjimalarini ko'rib chiqdik va quyidagi gaplarni misol tariqasida mazkur maqolada o'rinli deb topdik: 1. A long time after Athena's death, her former teacher asked me to go with her to the town of Prestonpans in Scotland. (Past Simple Tense) Afinaning o'limidan uzoq vaqt o'tib ustozi mendan Shotlandiyaning Prestonpans shahriga qilinajak safariga hamrohlik qilishimni so'radi. (Aniq o'tgan zamon fe'li) 1. She was always flittiring with dager. (Past Contin- uous Tense) U har doim xatar bilan o'ynashar edi. (O'tgan zamon hikoya fe'li) 2. However I really did feel she was going too far when I picked her up from school one day, and she told me that she'd seen "a woman dressed in white, like the Virgin Mary". (Past Continuous Tense) Bir kuni Shirinni maktabdan olib qaytayotib sezdimki undagi ilohiylik yana ham chuqurlashib borayapti. O'sha kuni u menga ko'ziga bibi Maryam kabi oppoq kiyingan ayol ko'ringanini aytdi. (O'tgan zamon davom fe'li) 3. Music had been created by God. (Past Perfect Tense) Musiqa Parvardigor tomonidan yaratilgan. (Uzoq o'tgan zamon fe'li) 4. Up until then, the subject had been taboo in the family. (Past Perfect Tense) Shu vaqtgacha bu mavzu haqida

soʻz ochish oilamizda taʼqiqlangan edi. (Oʻtgan zamon hikoya feʼli) Tahlil ustida ish olib borilgan asardan har ikki tilning oʻtgan zamon shakllariga doir yuzlab misollarni koʻrib chiqdik va faqtgina bir nechtasini misol tariqasida ushbu maqolada qoʻlladik ishlash jarayonida quyidagi xulosalarga keldik: a) Ingliz tilidagi Past Simple zamon formasi oʻzbek tilida asosan aniq oʻtgan zamon, oʻtgan zamon davom feʼli, oʻtgan zamon hikoya feʼli, uzoq oʻtgan zamon feʼl formalari koʻmagida berilar ekan; b) Ingliz tilidagi Past Continuous zamon formasi oʻzbek tilida asosan oʻtgan zamon hikoya feʼli, oʻtgan zamon davom feʼli va aniq oʻtgan zamon feʼli yordamida tarjima qilinar ekan. Baʼzan ingliz tilidagi Past Continuous feʼl formasi oʻzbek tilidagi uzoq oʻtgan zamon feʼli bilan ham ekvivalent boʻlishi mumkin ekan; c) Ingliz tilidagi Past Perfect zamon formasi oʻzbek tilida uzoq oʻtgan zamon feʼli formasi koʻmagida ifodalangan ekan. Ammo baʼzan Past Perfect zamon formasining oʻzbek tilida oʻtgan zamon hikoya feʼli yordamida berilganligini ham koʻrdik; d) Ingliz tilida Past Perfect Continuous zamon formasi juda kamdan-kam hollarda ishlatilar ekan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamolxonov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili - T.: Choʻlpon, 2008
2. Abdurahmonov Oʻzbek tili grammatikasi - T.: Choʻlpon, 2004
3. Gʻafforov Ingliz tili grammatikasi - Toshkent, 2005
4. N.A.Bonk, G.A.Kotiy, N.A.Lukyanova Ingliz tili darsligi – Toshkent. 2013.